

ZO'RAVONLIK JINOYATLARI DETERMINATSIYASI VA ULARNI OLDINI OLISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI



Nizametdinxodjayev Ulug'bek Ruslanovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti,
yuridik fanlar b'yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Mazkur maqolada zo'ravonlik jinoyatlarining determinatsiyasi va ularni oldini olish chora-tadbirlari tahlil qilinadi. Zo'ravonlik jinoyatlarining sabablari ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik va huquqiy omillar bilan bog'liqligi ko'rsatiladi. O'zbekistonda zo'ravonlik jinoyatlariga qarshi kurash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi va ularning samaradorligi baholanadi. Ijtimoiy muammolarni hal qilish va huquqiy choralarni takomillashtirish orqali mazkur jinoyatlarning oldini olish mexanizmlari taklif qilinadi.

Kalit so'zlar: zo'ravonlik, jinoyatchilik, kriminologiya, huquqiy choralar, ijtimoiy xavf, profilaktika, qotillik, jismoniy va ruhiy zo'ravonlik.

ДЕТЕРМИНАЦИЯ НАСИЛЬСТВЕННЫХ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИХ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматривается детерминация насильственных преступлений и меры по их предотвращению. Анализируются социально-экономические, психологические и правовые факторы, влияющие на уровень насильственной преступности. Особое внимание уделено мерам, принимаемым в Узбекистане для борьбы с насильственными преступлениями, и их эффективности. Предложены механизмы предотвращения данных преступлений путем совершенствования правовых мер и решения социальных проблем.

Ключевые слова: насилие, преступность, криминология, правовые меры, социальная опасность, профилактика, убийство, физическое и психологическое насилие.

DETERMINATION OF VIOLENT CRIMES AND MAIN DIRECTIONS FOR THEIR PREVENTION

Abstract. This article examines the determinants of violent crimes and measures to prevent them. It analyzes the socio-economic, psychological, and legal factors influencing the level of violent crime. Special attention is given to Uzbekistan's efforts to combat violent offenses and their effectiveness. Mechanisms for preventing these crimes by improving legal measures and addressing social issues are proposed.

Keywords: violence, crime, criminology, legal measures, social danger, prevention, homicide, physical and psychological violence.

Zo'ravonlik jinoyatlari ijtimoiy hayotning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatib, shaxs va jamiyat xavfsizligini ta'minlashda jiddiy muammolarni yuzaga keltiradi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar zo'ravonlikning salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha turli strategiyalarni ishlab chiqqan va bu jarayon davom etmoqda. Shu

bilan birga, O'zbekistonda ham ushbu jinoyatlarga qarshi kurashishga oid qonunchilik va amaliy choralar takomillashtirilmogda.

Jinoyatchilikning bu turi nafaqat jismoniy, balki ruhiy, iqtisodiy va ijtimoiy zarar yetkazishi bilan ham xavflidir. Masalan, oilaviy-maishiy zo'ravonlik jabrlanuvchilarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularning jamiyatda o'z o'rnini topishiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek,

ijtimoiy tengsizlik, mehnat bozoridagi muam-molar va madaniy an'analarining zo'ravonlikka ta'siri borasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish dol-zarb ahamiyatga ega.

IIV Axborot markazining bergan ma'lumot-lariga ko'ra, 2024-yilda jami jinoyatlarning 34,4% oldini olish mumkin bo'lgan va 21,1% huquq-tartibot idoralari tomonidan aniqlangan jinoyatlardir. Zo'ravonlik jinoyatlari umumiy jinoyatchilikning 10,7% ni tashkil etadi, shun-dan: qotillik – 2,6%, badanga og'ir shikast yetkazish – 6,8%, badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish – 16,8%, badanga yengil shikast yetkazish – 21,1%, nomusga tegish – 3,0%, bezorilik – 16,8%, bosqinchilik – 1,2% va talonchilik – 3,7%.

Qotillik jinoyatlari umumiy jinoyatchilikning 0,3% ni tashkil etib, 41,7% oilaviy mojarolar natijasida, 22,5% ishsizlar, 20,6% mast holda, 9,8% esa muqaddam sudlanganlar tomonidan sodir etilgan [1].

Qotillik jinoyatlarini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Oilaviy nizolar – asosiy omil. Qotilliklarning 41,7% oilaviy mojarolar natijasida sodir etilgani jamiyatda oilaviy munosabatlar va zo'ravonlik muammosining jiddiyligini ko'rsatadi. Bu holat nikohdagi nizolar, moddiy muammolar, maishiy muammolar va psixologik zo'ravonlikning jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligini tasdiqlaydi.

Ishsizlik – xavfli omil. Qotilliklarning 22,5% ishsizlar tomonidan sodir etilgani shuni ko'rsa-tadiki, moddiy nochorlik va doimiy daromad manbaining yo'qligi jinoiy xatti-harakatlarning oshishiga sabab bo'ladi. Ishsizlik ijtimoiy no-tinchlik, stress va ruhiy bosimga olib keladi, bu esa jinoyatchilikning o'sishiga ta'sir ko'rsatadi.

Mastlik holatida jinoyat sodir etish. Qotillik-larning 20,6% mast holda sodir etilgan. Bu spirtli ichimliklar iste'moli insonning o'zini tutishiga, asabiylashishiga va agressiv xatti-harakatlarga sabab bo'lishini ko'rsatadi. Spirtli ichimliklar na-zorati va jamoat joylarida uni iste'mol qilishga qarshi chora-tadbirlar ko'rish jinoyatchilik dara-jasini pasaytirishda muhim rol o'ynashi mumkin.

Muqaddam sudlangan shaxslar jinoyati. Qotilliklarning 9,8% muqaddam sudlanganlar tomonidan sodir etilgan. Bu shuni anglatadiki, ayrim shaxslar jazoni o'tab chiqqandan keyin ham qaytadan jinoyatga qo'l uradi. Sudlangan-larning jamiyatga reintegratsiyasi, ular uchun ish o'rinlari yaratish va qayta tarbiyalash dastur-larining samaradorligini oshirish lozim.

Hududlar kesimida eng ko'p qotillik Tosh-kent shahrida – 16,5%, Toshkent viloyatida – 14%, Namangan viloyatida – 9,9% va Farg'ona viloyatida – 9,1% sodir etilgan.

Jami tan jarohati yetkazish jinoyatlarining 17% oilaviy nizolar natijasida sodir etilgan. Tan jarohati yetkazish jinoyatlarining 15,3% og'ir, 37,5% o'rtacha og'ir va 47,2% yengil darajadagi shikast yetkazish holatlaridan iborat. Yilning eng ko'p tan jarohati yetkazilgan oylari: iyul – 10,4%, oktyabr – 9,7% va dekabr – 14,2%.

Jami qayd etilgan 421 ta nomusga tegish holatining 15% Samarqand viloyati hissasiga to'g'ri kelgan. Nomusga tegish jinoyatlarining 9,3% voyaga yetmaganlarga nisbatan, 34,7% yoshlar tomonidan, 16,1% mast holda va 5,5% ishsizlar tomonidan sodir etilgan.

Bezorilik jinoyatlari 16,8% ni, bosqinchilik – 1,2% va talonchilik – 3,7% ni tashkil etgan. Bezorilik jinoyatlarining asosiy qismi Toshkent (17,4%), Namangan (10,1%) va Buxoro (10%) viloyatlarida qayd etilgan [1].

Yuqoridagi raqamlar zo'ravonlik jinoyatlari determinatsiyasini o'rganish va ularning oldini olish bo'yicha kompleks yondashuvlarni ishlab chiqish huquqiy va kriminologik tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishiga aylanishi lozimligidan da-lolat beradi. Ushbu masalani chuqur tahlil qilish jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirish va jamiyatda zo'ra-vonlikka nisbatan toqatsizlik muhitini shakl-lantirishga xizmat qiladi.

Jahon davlatlarining konstitutsiyalari va milliy qonunchiligida inson huquq va erkinlik-larini himoya qilish, ayniqsa, shaxsning hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatini jinoiy tajovuz-

lardan asrashga alohida e'tibor qarailadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ham fuqarolarning asosiy huquq va majburiyatlarini belgilab, hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi tazyiqqa uchrashi mumkin emasligini mustahkamlaydi.

Yuridik adabiyotlarda "jinoyatchilik" va "jinoyat" tushunchalarining farqini aniqlashtirish muhimligi ta'kidlanadi [2]. Xususan, jinoyatchilik kriminologik kategoriya sifatida kengroq mazmunga ega bo'lib, u jamiyatda sodir etilayotgan barcha jinoyatlarni qamrab oladi. U nafaqat jinoyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi, balki ularning sabablari, ijtimoiy oqibatlari va umumiy tendensiyalari haqida ham tahlil olib boradi. Jinoyatchilik ma'lum bir davrda va hududda sodir etilgan barcha jinoyatlarning yig'indisi sifatida qaraladi va uning ijtimoiy tomonlari o'rganiladi. Ikkinchidan, jinoyat – bu huquqiy tushuncha bo'lib, u jinoyat kodeksida belgilangan, noqonuniy va jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakatlarni anglatadi. Jinoyat huquqiy jihatdan aniq belgilangan tarkibga ega bo'lib, har bir jinoyat uning kvalifikatsiyasi va tegishli jazo choralari asosida baholanadi. Bu tushuncha jinoyatlarning yuridik ta'rifini, ularning jazolanish mexanizmlari va huquqiy normalar doirasidagi baholanishini o'z ichiga oladi.

Shundan kelib chiqib, O.R.Afanasyevaning fikriga ko'ra, "zo'ravonlik jinoyatchiligi" tushunchasini kriminologik nuqtayi nazardan to'g'ri belgilash uchun jinoyat huquqining aniq ta'riflariga tayanish talab etiladi. Chunki aynan jinoyat huquqi muayyan harakatni jinoyat deb tan olish mezonlarini belgilab beradi va shu asosda kriminologik tahlillar olib boriladi. Shuning uchun zo'ravonlik jinoyatchiligini chuqur o'rganish va uning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlashda huquqiy va kriminologik yondashuvlar bir-biriga mos kelishini ta'minlash zarur. Ushbu yondashuv jinoyatchilikni tushinishda aniqlik yaratib, uning tadqiqotlarida noaniqliklarni kamaytirishga yordam beradi [2].

Fikrimizcha, O.R.Afanasyevaning yondashuvi ilmiy jihatdan asosli va mantiqiydir.

Zo'ravonlik jinoyatlarini to'g'ri tahlil qilish uchun jinoyat huquqi va kriminologiya o'rtasidagi bog'liqlikni inobatga olish zarur. Chunki huquqiy me'yorlar muayyan xatti-harakatni jinoyat sifatida baholash mezonlarini belgilasa, kriminologiya bu jinoyatlarning sabablarini, ijtimoiy oqibatlari va oldini olish choralari o'rganadi. Shuning uchun huquqiy va kriminologik yondashuvlarni uyg'unlashtirish nafaqat ilmiy aniqlikni ta'minlaydi, balki zo'ravonlik jinoyatlariga qarshi samarali kurashish strategiyalarini ishlab chiqishga ham imkon yaratadi.

O'zbek tilining izohli lug'atida qayd etilishicha, "zo'ravonlik" tushunchasi fors-tojik tilidan kirib kelgan "zo'r" so'zi o'zagidan yasalgan bo'lib, turli ma'nolarga ega. Bu so'z: 1) kuch-quvvat va ta'sir, 2) urinish va harakat, 3) shiddatli zarb, kuchlilik, 4) zo'ravonlik va zo'rlikni ifodalaydi [3]. O'zbek tilidagi "zo'ravonlik" tushunchasi ingliz tilida "violence" deb tarjima qilinadi, uning ma'nosi odamlarga zarar yetkazish maqsadida qilingan harakat yoki so'zlar, juda kuchli zarba, shuningdek, irqiy, etnik yoki oilaviy zo'ravonlik kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi [4]. Xuddi shuningdek, rus tilidagi "nasiliye" tushunchasi qo'pol jismoniy kuch ishlatish, axloqiy bosim o'tkazish yoki biror-bir narsaga g'ayritabiiy ta'sir ko'rsatish ma'nolarini anglatadi [5].

"Zo'ravonlik" tushunchasi turli tillarda va madaniyatlarda biroz farqli ma'nolarga ega bo'lsa-da, uning umumiy mazmuni kuch ishlatish, tazyiq o'tkazish va shaxsga yoki jamiyatga zarar yetkazish bilan bog'liq. O'zbek tilida bu so'z "zo'r" asosidan kelib chiqib, kuch, ta'sir va shiddatli harakat ma'nolarini o'z ichiga olsa, ingliz va rus tillaridagi muqobil tushunchalar jismoniy zo'ravonlikdan tortib, axloqiy va psixologik bosimgacha bo'lgan holatlarni qamrab oladi. Demak, zo'ravonlik jinoyatchiligini o'rganishda uning huquqiy, ijtimoiy va psixologik jihatlarini kompleks tarzda tahlil qilish zarur. Bu yondashuv uning keng qamrovli va xavfli tusini aniq anglash hamda samarali profilaktika choralari ishlab chiqish imkonini beradi.

Huquqiy nuqtayi nazardan bu tushuncha birinchi marta O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunida keltirilgan bo'lib, unda "zo'ravonlik — xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazish choralarini qo'llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmati va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g'ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik)" ekanligi belgilab qo'yilgan [6].

Zo'ravonlik ijtimoiy hodisa sifatida turli shakllarda namoyon bo'ladi va ijtimoiy-huquqiy kategoriya sifatida muayyan xususiyatlarga ega. *Birinchi*dan, u noqonuniy ravishda sodir etiladi, ya'ni amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'ladi. *Ikkinchi*dan, jabrlanuvchining xohishiga qarshi yoki uning rozilgisiz amalga oshiriladi, bu esa shaxsning huquq va erkinliklariga tajovuz ekanligini ko'rsatadi. *Uchinchi*dan, zo'ravonlik tajovuzkor tomonidan qasddan yoki yuzaga kelgan vaziyatdan foydalangan holda bajariladi, ya'ni u jabrlanuvchiga zarar yetkazish maqsadini o'z ichiga oladi. *To'rtinchi*dan, uning oqibatlarini nafaqat shaxsning sog'lig'iga, balki jamoatchilik manfaatlariga ham ziyon yetkazishi mumkin. Bu xususiyatlar zo'ravonlikni huquqiy nuqtayi nazardan tahlil qilish va unga qarshi samarali choralar ko'rish uchun muhim mezonlar hisoblanadi.

Zo'ravonlik va uning natijasi bo'lmish zo'ravonlik jinoyatlarining sabablari inson agressivligining o'ziga xos xususiyatlarida jamlangan bo'lib, bu xususiyatlar inson hayotining o'ziga xos shart-sharoitlari natijasida shakllanadi. Bunday shart-sharoitlar, o'z navbatida, insonning tarixiy taraqqiyoti jarayonida vujudga kelgan ijtimoiy muhit xususiyatlarini ifodalaydi. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblik, ma'naviy qadriyatlar inqirozi, mojarolarni zo'ravonlik yo'li bilan hal etish madaniyati va axloqiy me'yorlarning susayishi insondagi agressiyaning oshishiga xizmat qiladi. Shu

tariqa, insonning zo'ravonlikka moyilligi uning shaxsiy xususiyatlari bilan birga, jamiyat tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy ta'sirlar tufayli vujudga keladi va rivojlanadi [7].

Zo'ravonlik jinoyatlari sonining o'zgarishi bilan birga, ularning sifat xususiyatlarida ham sezilarli transformatsiya kuzatilmoqda. Xususan, zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarning umumiy soni o'zgarishi jarayonida ularning sifat xususiyatlari ham sezilarli ravishda evolyutsiya qilmoqda, bu esa jinoyatchilikning yangi shakl va usullari paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Bu qolgan jinoyatlar yanada og'irroq yoki murakkabroq tus olayotganini yoki bunday harakatlarga sabab bo'luvchi ijtimoiy shart-sharoitlarning o'zgarishini anglatadi. Masalan, alkogolizm, narkotik moddalar iste'moli, aholi ma'lum guruhlarining marginallashuvi va oilaviy nizolarning ko'payishi zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarning xususiyatiga ta'sir ko'rsatib, tajovuzkorligini oshirishi yoki jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu tariqa, jinoyatlar umumiy soni kamaysa-da, ularning tabiati va jamiyatga ta'siri yomonlashishi mumkin.

A.A.Djafarova maishiy zo'ravonlik jinoyatchiligini keltirib chiqaruvchi asosiy omillarni uch asosiy guruhga ajratadi. Birinchi navbatda, psixologik sabablar – bu jinoyatchi va jabrlanuvchining shaxsiy xususiyatlari hamda ruhiy holati bilan bog'liq bo'lgan omillar bo'lib, ular individual xarakter xususiyatlari, stressga chidamlilik darajasi va agressiyaning boshqarish qobiliyati kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi guruh – psixiatriyaga oid omillar bo'lib, bunda zo'ravonlikka moyillikka ta'sir etuvchi ruhiy kasalliklar va psixik buzilishlar nazarda tutiladi. Bunday holatlarda shaxsning adekvat qaror qabul qilish va o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish qobiliyati zaiflashgan bo'lishi mumkin. Uchinchi muhim guruh esa, kriminogen omillar bo'lib, ular jinoyatni vujudga keltiruvchi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy muhit bilan bog'liq. Bunda oiladagi muammolar, moddiy qiyinchiliklar, ma'naviy qadriyatlar inqirozi, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblik va agressiv xulq-

atvorni rag'batlantiruvchi urf-odatlar kabi faktorlar kiritiladi. Ushbu omillar birgalikda maishiy zo'ravonlik jinoyatlarining yuzaga kelish xavfini oshiradi va ularga qarshi kurashishda tizimli yondashuvni talab qiladi [8].

Ye.R.Keydunova esa, zo'ravonlik jinoyatlarini keltirib chiqaruvchi bir necha asosiy sabablarni ajratadi. *Birinchidan*, ijtimoiy shart-sharoitlar zo'ravonlikni rag'batlantiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Jamiyatdagi muayyan guruhlar orasida zo'ravonlikni qabul qilish va uni mojarolarni hal etish vositasi sifatida ko'rish tendensiyasi mavjud bo'lib, bu holat shaxsning o'z maqsadlariga erisha olmasligi natijasida yuzaga keladigan frustratsiya bilan bog'liq. *Ikkinchidan*, alkogol va narkotik moddalarni ortiqcha iste'mol qilish zo'ravonlik jinoyatlarining kriminogen determinanti hisoblanadi. Bunday moddalarni qabul qilish shaxsning nazorat qobiliyatini zaiflashtirib, impulsiv xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin. *Uchinchidan*, inson tabiatining biosotsial xususiyatlari ham zo'ravonlikning manbalaridan hisoblanadi. Agressivlik evolyutsion nuqtayi nazaridan tirik qolish uchun muhim vosita bo'lgan va bu xususiyat insonning ijtimoiy munosabatlarida aks etadi. *To'rtinchidan*, bolalik va o'smirlik davridagi psixologik omillar katta ahamiyatga ega. Oiladagi nosog'lom muhit, zo'ravonlik va shafqatsiz munosabat bolada agressiv moyilliklarni shakllantirishi mumkin, bu esa kelgusida zo'ravonlik jinoyatlariga moyillikni oshiradi. Ushbu omillar birgalikda jinoiy zo'ravonlikning kelib chiqishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi murakkab mexanizmlarni shakllantiradi [7].

Yuqori keltirilganlardan ko'rinadiki, zo'ravonlik jinoyatlarining kelib chiqishi ko'plab omillar bilan bog'liq bo'lib, ularni psixologik, psixiatriyaga oid, ijtimoiy va biosotsial sabablarga ajratish mumkin.

Psixologik va psixiatriyaga oid omillar shaxsning shaxsiy xususiyatlari, stressga chidamlilik, agressiyani boshqarish qobiliyati hamda ruhiy kasalliklar va psixik buzilishlar bilan bog'liq bo'lib, bunday holatlarda shaxs o'z xatti-

harakatlarini nazorat qilish qobiliyatini yo'qotishi mumkin.

Ijtimoiy va kriminogen omillar esa, jinoyatga sabab bo'luvchi moddiy qiyinchiliklar, oilaviy muammolar, ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblik, ma'naviy qadriyatlarning inqirozi va zo'ravonlikni rag'batlantiruvchi urf-odatlar bilan bog'liq. Bundan tashqari, alkogolizm va narkotik moddalarni ortiqcha iste'mol qilish ham zo'ravonlikka moyillikni kuchaytiruvchi jiddiy faktorlardan biri hisoblanadi.

Biosotsial va tarbiyaviy omillar esa, insonning evolyutsion xususiyatlari, bolalik va o'smirlik davrida oiladagi nosog'lom muhit, zo'ravonlik va shafqatsiz munosabatlar orqali shakllanadigan agressiv xulq-atvorni o'z ichiga oladi.

Umuman olganda, zo'ravonlik jinoyatlarining yuzaga kelishi ko'p omilli jarayon bo'lib, ularning oldini olish va kamaytirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Bunda huquqiy choralar, psixologik va ijtimoiy reabilitatsiya, tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, shuningdek, jamiyatda zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Ye.R.Keydunova zo'ravonlik jinoyatlarining determinatsiyasini aniqlash orqali ularning oldini olishga doir bir qator chora-tadbirlarni taklif etgan.

Birinchidan, psixologik yordam ko'rsatish tizimini rivojlantirish, jumladan ishsizlar va hisobda turgan shaxslar uchun maxsus psixologik yordam punktlarini tashkil etish, ularning zo'ravonlik va agressiya bilan bog'liq xatti-harakatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini kuchaytirish talab etiladi. Ichki ishlar xodimlari jinoyatchilik holatini mun-tazam tahlil qilib borishi, jamoat joylarida patrul nazoratini olib borishi va aholini huquqbuzarliklarning oldini olish jarayonlariga jalb qilishi lozim.

Uchinchidan, xavf guruhlarini nazorat qilish va ular bilan profilaktika ishlarini olib borish. Buning uchun huquqiy asoslarni takomil-

lashtirish, ayniqsa, o'tmishda sudlanganlar, ishsizlar, alkogol va narkotik moddalarga moyil shaxslar bilan ishlash strategiyasini ishlab chiqish zarur.

To'rtinchidan, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish kerak. Yoshlarda to'g'ri xulq-atvorni shakllantirish, axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash hamda bolalarning pornografik materiallardan himoya qilinishi ijtimoiy muhitni xavfsizroq qilishga yordam beradi.

Nihoyat, zo'ravonlik muammolarini yaxshiroq tushunish uchun kompleks tadqiqotlar o'tkazish talab etiladi. Jinoyatchilik sabablarini chuqur tahlil qilish, ilmiy asoslangan yechimlarni ishlab chiqish va samarali profilaktika choratadbirlarini belgilash orqali zo'ravonlikni kamaytirish mumkin[7].

Ilmiy adabiyotlarda zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatchilik mazmuniga doir yagona nuqtayi nazar mavjud emas, ya'ni ushbu toifani tashkil etuvchi jinoyatlar ro'yxati yuzasidan turli yondashuvlar mavjud.

Ba'zi olimlar zo'ravonlik jinoyatlarini faqat jamiyat uchun eng xavfli bo'lgan, shaxsning hayoti, sog'lig'i, jismoniy va jinsiy daxlsizligiga tajovuz qiluvchi jinoyatlar sifatida baholaydilar.

Boshqa tadqiqotchilar esa zo'ravonlik jinoyatlariga insonga jismoniy yoki ruhiy zarar yetkazuvchi barcha qasddan sodir etilgan jinoyatlarni kiritish kerak deb hisoblaydilar. Bunga nafaqat shaxsga qarshi nazarda tutilgan jinoyatlar, balki tarkibida zo'ravonlikni asosiy belgi sifatida o'z ichiga olgan yoki harakatlarning o'zi zo'ravonlik bilan bog'liq bo'lgan barcha jinoyatlar kiradi [9].

Yu.M. Antonyan, E.F. Pobegaylo, A.A. Mishenko va boshqa tadqiqotchilar zo'ravonlik jinoyatlari toifasiga an'anaviy tarzda moddiy manfaatdorlik bilan bog'liq zo'ravonlik jinoyatlari sifatida baholanadigan bosqinchilik, talonchilik va tovlamachilikni ham kiritishni taklif qiladilar[10].

Bu yondashuv jinoyat tarkibidagi obyektga oid ilmiy prinsiplarga emas, balki jinoiy-huquqiy

muhofaza ustuvorliklariga asoslanadi. Ya'ni, mualliflar bu jinoyatlarning zo'ravonlik jinoyatlariga kiritilishini ularning tajovuz qilingan obyektning qimmati va shaxsga qarshi zo'ravonlik jinoyatlari bilan kriminologik jihatdan o'xshash xususiyatlarga ega ekanligi bilan izohlaydilar.

Bu borada Sh.R. Jalolov O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining bir qator, xususan 97, 98, 99, 103, 104, 105, 106, 109, 110, 112, 114, 115, 117, 118, 119, 121, 132, 135, 136, 137, 138, 142, 152, 153, 155, 158, 161, 164, 165 va boshqa moddalari, ya'ni zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarni kiritgan [11].

Zo'ravonlik jinoyatlari toifasiga boshqa turdagi jinoyatlarni ham kiritish mumkin. Masalan, D.A.Koreskiyning fikriga ko'ra, har qanday og'ir jinoyat, agar u qurol qo'llanilgan holda sodir etilgan bo'lsa, zo'ravonlik jinoyati sifatida baholanishi va jinoiy zo'ravonlik kontekstida ko'rib chiqilishi lozim [12].

Bu yondashuv jinoyat sodir etishdagi zo'ravonlik darajasini belgilovchi asosiy omil sifatida quroldan foydalanishni nazarda tutadi. Shu bois, qurol bilan amalga oshirilgan og'ir jinoyatlar nafaqat shaxsga qarshi, balki jamoat xavfsizligi, mulk yoki davlat manfaatlariga qarshi bo'lgan hollarda ham zo'ravonlik jinoyatlari sifatida tasniflanishi mumkin.

O.N.Ivasyuk oilaviy-maishiy jinoyatchilikning o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida bir qator muhim jihatlarni ajratadi. *Birinchidan*, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar oilaviy munosabatlarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ishsizlik, kambag'allik va iqtisodiy beqarorlik uydagi keskinlikni oshirib, nizolarning zo'ravonlik bilan hal etilishiga olib kelishi mumkin.

Ikkinchidan, oilaviy munosabatlardagi stress va tanglik maishiy zo'ravonlik jinoyatlarining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Xususan, o'zaro tushunishning yo'qligi, uzoq muddatli nizolar va nazoratsiz ehtiroslar kuchaygan sari, jismoniy yoki psixologik zo'ravonlik xavfi ortadi.

Uchinchi muhim faktor – jinoyatlarning latentligi. Oilaviy-maishiy zo'ravonlik holatlari

ko'pincha jabrlanuvchilarning huquq-tartibot organlariga murojaat qilmasligi yoki jamiyat tomonidan yopiq mavzu sifatida qaralishi sababli yashirin qoladi. Bu holat haqiqiy jinoyatchilik darajasini aniqlashni qiyinlashtiradi va zo'ravonlikka moyil shaxslarni jazodan qutulib qolishini ta'minlaydi.

To'rtinchi omil sifatida ijtimoiy normalar ko'rsatiladi. Ayrim jamiyatlarda yoki madaniy muhitlarda oiladagi zo'ravonlik "shaxsiy ish" sifatida qabul qilinishi yoki an'anaviy normalar bilan oqlanishi mumkin. Bu esa zo'ravonlikning uzoq muddat davom etishi va unga qarshi kurashish mexanizmlarining samarasizligini keltirib chiqaradi.

Nihoyat, psixologik omillar ham muhim rol o'ynaydi. Ayrim shaxslarda agressiv xulq-atvoriga moyillik, emotsiyalarni nazorat qila olmaslik va shaxsiy psixologik muammolar mavjud bo'lib, bu oilaviy zo'ravonlikning sodir etilishiga olib kelishi mumkin. Shaxsning bolalikda zo'ravonlik muhitida o'sishi yoki og'ir psixologik jarohatlarga uchrashi ham bu xulq-atvorni kuchaytirish ehtimoldan xoli emas.

Muallifning ta'kidlashicha, bu omillar bir-biri bilan bog'liq holda ishlaydi va oilaviy-maishiy jinoyatchilikning yuqori darajada saqlanib qolishiga sabab bo'ladi. Ushbu muammolarga kompleks yondashuv talab etilib, ularni kamaytirish uchun jamiyat, davlat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan uzluksiz profilaktika choralari ko'rilishi lozim [13].

A.A.Djafarova oilaviy-maishiy zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha bir qator tavsiyalarni ilgari suradi. Birinchidan, maxsus markazlarni tashkil etish zarur, bunday markazlar nizolarni hal etish, jabrlanuvchilarga psixologik, huquqiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish vazifasini bajaradi. Ikkinchidan, zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatchilik holatini muntazam monitoring qilish, uning miqdoriy va sifat jihatlarini tahlil qilish muhim hisoblanadi. Bu profilaktika chora-tadbirlarining samaradorligini baholash va tegishli institutlar faoliyatini takomillashtirish imkonini beradi. Shuningdek, davlat miqyosida ilmiy asoslangan

samarali mexanizmlarni ishlab chiqish va joriy etish talab etiladi, bu esa zo'ravonlikka qarshi tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishga imkon beradi. Nihoyat, jamiyat va davlat darajasida oilaviy zo'ravonlikka bo'lgan munosabatni o'zgartirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muammoga nisbatan keskin munosabatni shakllantirish, jinoyatchilikni kamaytirishga qaratilgan keng jamoatchilik ongini o'zgartirish choralarni ko'rish, zo'ravonlikni ijtimoiy va huquqiy jihatdan qoralash orqali profilaktika samaradorligini oshirishga xizmat qiladi[8].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, zo'ravonlik jinoyatlarining bir qator muhim xususiyatlari ajratiladi, ya'ni:

1. Zo'ravonlik qilish – bu jismoniy kuch ishlatish (masalan, urish, bo'g'ish, yaralash) yoki uni qo'llash tahdidi bo'lishi mumkin. Bu tahdid jabrlanuvchida qo'rquv va psixologik noqulaylik uyg'otadi.

2. Shaxsga qaratilganligi – zo'ravonlik jinoyatlari aniq bir shaxs yoki shaxslar guruhiga nisbatan sodir etiladi.

3. Zarar yetkazish – jinoyat natijasida jabrlanuvchi jismoniy shikastlanish (jarohat, mayiblik, o'lim) yoki ruhiy jarohat oladi.

Amaldagi Jinoyat kodeksi moddalarini tahlil qilish bizga zo'ravonlik jinoyatlarini bir nechta asosiy turlarga bo'lish imkonini beradi:

1. Shaxsga qarshi jinoyatlar – inson hayoti, sog'lig'i va erkinligiga qarshi sodir etiladigan jinoyatlar. Bularga qasddan odam o'ldirish, tan jarohati yetkazish, zo'rqlash va odam o'g'irlash kabi jinoyatlar kiradi.

2. Mulkiy jinoyatlar bilan bog'liq zo'ravonlik – bunda jinoyatchi shaxsiy manfaatlarini himoya qilish yoki moddiy boyliklarni egallash maqsadida zo'ravonlik ishlatadi (masalan, tajovuzkor o'g'irlik, talonchilik, bosqinchilik).

3. Ruhiy zo'ravonlikka asoslangan jinoyatlar – bunday jinoyatlar jismoniy zo'ravonlikni o'z ichiga olmasligi mumkin, ammo jabrlanuvchida qo'rquv va ruhiy jarohat qoldiradi. Masalan, tahdid qilish, odamni qiynash, zo'ravonlik orqali shaxsga ta'sir o'tkazish.

Umuman olganda, zo'ravonlik jinoyatlari jamiyat xavfsizligi va huquqiy tizim mustahkamligiga jiddiy tahdid tug'diradi. Ularning oldini olish va jazo choralarini belgilash huquqiy tizimning muhim vazifalaridan biridir. Har bir yurisdiksiyada zo'ravonlik jinoyatlariga nisbatan

turlicha yondashuv mavjud bo'lsa-da, ularning umumiy belgilarini aniqlash va toifalash huquqni muhofaza qilish organlari uchun muhim ahamiyatga ega. Huquqiy nazariya va amaliyotda ushbu jinoyatlarni samarali tarzda baholash va ularga qarshi choralar ko'rish lozim.

Foydalanilgan manbalar

1. IIV Axborot mazkazi ma'lumotlari.
2. Афанасьева О.Р. Исходные начала соотношения «насильственной преступности» и «насильственных преступлений» // Вестник МФОА. – 2013. – № 3. – С. 56–62.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati : [Tekst] : 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi: 5 jildli / O'zR FAA. Navoiy nomidagi Til va adabiyoti in-ti; A. Madvaliyev tahriri ostida; tahrir hay'ati E. Begmatov – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi [2006–2008]. Ikkinchi jild: Ye-M. – 2006, – 166-b.
3. Cambridge Dictionary / [electronic resource] <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/violence>
4. Большой толковый словарь русского языка / Гл. ред. С.А.Кузнецов. Первое издание: – СПб.: Норинт, 1998. / <http://gramota.ru/slovari/dic/>
5. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019-y., 03/19/561/3680-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 10.12.2021-y., 03/21/736/1144-son; 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son; 19.10.2024-y., 03/24/977/0831-son
6. Кейдунова Е. Р. Детерминация и основные направления предупреждения насильственных преступлений // Известия вузов. Северо-Кавказский регион. Общественные науки. – 2014. – № 5. – С. 85–88
7. Джафарова А. А. Бытовая насильственная преступность: Отдельные криминологические проблемы // Ученые записки Казанского института МВД России. – 2020. – Т. 5. – № 2(10). – С. 131–134.
8. Насильственная преступность / Бородин С.В., Кригер Г.Л., Кудрявцев С.В., Лунеев В.В. и др.; Под ред.: Кудрявцев В.Н., Наумов А.В. – М., 1997.
9. Преступность в федеральных округах / Под ред. Ю.М. Антоняна. – М., 2002.
10. Jalolov Sh.R. Zo'ravonlik jinoyatlarini zamonaviy profilaktikasining ayrim jihatlarini // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2022. – Т. 2. – № 7. – С. 403–413.
11. Корецкий Д.А. Основы теории и методологии криминологического исследования тяжких преступлений, совершаемых с применением оружия: Дис... д-ра юрид. наук: – М., 1997.
12. Ивасюк О.Н. Особенности причинного комплекса современных бытовых преступлений и проблемы их предупреждения // Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России. – 2020. – № 4 (88). – С. 97–102.

